

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6



СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА | INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

№6 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9297-2024-6>

Бош муҳаррир:

Тўхтасинов Илҳом

п.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Бош муҳаррир ўринбосари:

Главный редактор:

Тўхтасинов Илҳом

д.п.н., профессор (Ўзбекистон)

Заместитель главного редактора:

Editor in Chief:

Tuhtasinov Ilhom

DSc. Professor (Uzbekistan)

Deputy Chief Editor

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умарўгли

ф.ф.д., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

ф.ф.д., профессор (Озарбайжон)

Бокиева Гуландом

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

ф.ф.д., профессор (Татаристон)

Махмудов Низомиддин

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

ф.ф.д., профессор (Россия)

Жўраев Маматкул

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Жеймс Форт

Мичиган университети (АҚШ)

Умархўжаев Мухтор

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Болтабоев Ҳамидулла

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Дўстмухаммедов Хуршид

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

ф.ф.д., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

ф.ф.д. (Грузия)

Туробов Бекпулат

масъул котиб, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ

Назаров Бахтиёр

академик. (Ўзбекистон)

Якуб Умар оглы

д.ф.н., профессор (Туркия)

Алмаз Улви Биннатова

д.ф.н., профессор (Азербайджан)

Бакиева Гуландом

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Миннуллин Ким

д.ф.н., профессор (Татарстан)

Махмудов Низомиддин

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Керимов Исмаил

д.ф.н., профессор (Россия)

Джураев Маматкул

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Куренов Рахиммамед

к.ф.н. (Туркменистон)

Кристофер Джеймс Форт

Университет Мичигана (США)

Умархаджаев Мухтар

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Мирзаев Ибодулло

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Балтабаев Ҳамидулла

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Дустмухаммедов Хуршид

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Лиходзиевский А.С.

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Сиддикова Ирода

д.ф.н., профессор (Ўзбекистон)

Шиукашвили Тамар

д.ф.н. (Грузия)

Туробов Бекпулат

отв. секретарь, PhD, доцент
(Ўзбекистон)

EDITORIAL BOARD

Bakhtiyor Nazarov

academician. (Uzbekistan)

Yakub Umarogli

Doc. of philol. scien., prof. (Turkey)

Almaz Ulvi Binnatova

Doc. of philol. scien., prof. (Azerbaijan)

Bakieva Gulandom

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Minnulin Kim

Doc. of philol. scien., prof. (Tatarstan)

Mahmudov Nizomiddin

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kerimov Ismail

Doc. of philol. scien., prof. (Russia)

Juraev Mamatkul

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Kurenov Rakhimmamed

Ph.D. Ass. Prof. (Turkmenistan)

Christopher James Fort

University of Michigan (USA)

Umarkhodjaev Mukhtar

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Mirzaev Ibodulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Boltaboev Hamidulla

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Dustmuhammedov Khurshid

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Lixodzievsky A.S.

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Siddiqova Iroda

Doc. of philol. scien., prof. (Uzbekistan)

Shiukashvili Tamar

Doc. of philol. scien. (Georgia)

Turobov Bekpulat

PhD Ass. prof. Senior Secretary
(Uzbekistan)

PageMaker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,


Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

1. Rashidova Manzura Bakhtiyorovna THE INFLUENCE OF CONFUCIAN TRADITIONS ON THE KOREAN LANGUAGE.....	5
2. Alisher Rustamov Abduhakimovich A SYSTEM OF EXERCISES AND TASKS FOR THE DEVELOPMENT OF WRITTEN SPEECH SKILLS OF HIGH SCHOOL STUDENTS THROUGH PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS.....	10
3. Ziyayeva Kamola Ziyaiddinovna THE LINGUISTIC AND CULTURAL DIMENSIONS OF HUMOUR: A STUDY OF SPEECH GENRES AND THEIR ROLE IN COMMUNICATIN.....	15
4. Davlatova Xulkaroy Uktamovna, Botiova Valida Shuhrat qizi SPECIFIC ASPECTS OF SPEECH COMMUNICATION AND INTERNET COMMUNICATION.....	19
5. Jo‘raqulova Mushtariy O‘ZBEK TILI PARALLEL KORPUSINING LINGVISTIK TA‘MINOTI.....	24
6. Pardayeva Iroda Mamayunusovna ALISHER NAVOIY IJODIDA AMIR TEMUR VA TEMURIYLAR TASVIRI.....	29
7. Aliyeva Zebo Akram qizi MIRATIVLIK KATEGORIYASI GRAMMATIK KO‘RSATKICH SIFATIDA.....	35
8. Mirzayev Shukurullo Abduqodir o‘g‘li TOPIK II 53- YOZISH SAVOL TURLARI VA YOZISH USULLARI.....	41
9. Bayonkhanova Iroda Furkatovna KOREYS TILINI O‘RGANISHDA MAQOLLARDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI.....	47
10. Hasanov Suhrob Shavkat ugli SYMBOLS AND ALLEGORIES IN THE PROSE OF ISAJON SULTAN.....	53
11. Улаш Нематович Бобоев МОДЕЛЬ СТРАТЕГИЙ ПЕРЕВОДА НА РУССКИЙ ЯЗЫК ШОК-ТЕЙМЕНТА В СМИ УЗБЕКИСТАНА И ФРАНЦИИ.....	60
12. Sadriddinzoda Safiya Shaxobiddinovna AMPHIBOLOGY IN ENGLISH RELIGIOUS LEXICOLOGY.....	65
13. Eshimova Sharofat Kenjaboyevna SINESTEZIYA - METAFORANING BIR TURI SIFATIDA.....	70
14. Umirzoqova Oynisa THE COMPARATIVE ANALYSIS OF THE TEMPORAL CATEGORY IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES.....	76
15. Alibekova Dilrabo Abdiraimovna COHISION OF NATURALISM, OPTIMISM AND REALISIM IN THE WORKS OF HECTOR MALOT AND THEODOR DREISER.....	83
16. Gulirukhsor Ruzikulova Gofur kizi A COMPARATIVE ANALYSIS OF FACE-RELATED IDIOMS IN ENGLISH AND UZBEK.....	88
17. Xalimova Firuza Rustamovna MATN DOIRASIDA BADIY KONSEPTNING SHAKLLANISHI.....	96
18. Xamidova Dilorom Olimjonovna LUQMON BO‘RIXONNING “JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANIDA BADIY TILNING IFODALANISHI.....	102

19. Xaydarova Nigora Tuxtasunovna AYOL VA ERKAKLARNING MUHOQOT USULLARI.....	107
20. Shamshoda Rustamova O‘SMIR BOLALAR NUTQIDAGI INNOVATSIYALAR VA ULARNING IFODALANISHI.....	112
21. Karshieva Shokhista Kholikul kizi SYNTAX AND SEMANTICS OF ERGATIVE CONSTRUCTIONS.....	119
22. Musayeva Shaxlo Kudratovna QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida).....	125
23. N.J.Sulaymanova IJOBIY BAHO PRAGMATIK MAZMUNINI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLAR.....	131
24. Azimbayeva Nargiza Tuxtamuradovna O‘ZBEK VA FORS TILLARIDA XULQ-ATVORNI IFODALOVCHI LEKSIK KONSTRUKSIYALAR TASNIFI.....	135
25. Yuldasheva Dilnoza Bekmuradovna THE ROLE OF UZBEK AND ENGLISH PHRASEOLOGY IN CROSS-CULTURAL COMMUNICATION.....	139
26. Gulruxsor Xoliyorova TERMINOLOGIK TEZAVRUSLARINING LINGVISTIK XOSLANISHI.....	143
27. Alisher Rustamov Abduhakimovich THE HISTORY OF TEACHING AND LEARNING ENGLISH WRITING SKILLS IN UZBEKISTAN (POST-SOVIET STATE). PEDAGOGICAL DIAGNOSTIC APPROACH.....	149
28. Kubaeva Nafisa Alisher qizi UNLOCKING THE POWER OF IDIOMS: HOW FIGURATIVE LANGUAGE ENRICHES COMMUNICATION.....	154
29. Dilafro‘z Amonova KOREYS ADABIYOTI TARIXIDA AYOLLAR IJODIYOTI.....	158
30. Obruyeva Gulchexra Xamrokulovna ATOQLI OTLARNING FRAZEOLOGIK BIRLIKLAR TARKIBIDA APELLATIVIZATSIYAGA UCHRASHI...164	164
31. Esanova Maftuna Bahodirovna YUNON-LOTIN TIBBIYOT ATAMALARINING TARIXI VA ULARNING ZAMONAVIY TIBBIYOTDAGI O‘RNI.....	168
32. Azimova Yulduz Baxtiyor qizi AVTOBIOGRAFIK DISKURSINING UMUMIY TAVSIFI.....	173
33. Maxmudova Dilshoda Kurbonbayevna KOMPOZITSION TASHKILLANISH VA PEYZAJ MODIFIKATSIYASI.....	177



INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

ISSN: 2181-9297

www.tadqiqot.uz

UDK: 821.519.133

Musayeva Shaxlo Kudratovna

Renessans ta'lim universiteti Filologiya kafedrasi v.b., dotsenti

E-mail: musayevasahlo81@gmail.com

ORCID ID: <https://orcid.org/0009-0008-1160-5634>

QISSALARDA IKKINCHI JAHON URUSHI DAVRI VOQEALARI TASVIRINING QIYOSIY TAHLILI. (Nosir Fozilov asarlari misolida)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.15069199>

ANNOTATSIYA

Har qanday yozuvchi shoir borki, avvalo ilk mashqlari o'zining boshidan kechirgan, yoki guvohi bo'lgan holatlarni qalamga oladi. XX asarda ijod qilgan adiblarimiz aksariyatini urush mavzusiga qo'l urmadi deb ayta olmaymiz. Ushbu maqolada o'zbek bolalar adabiyotini tahlil qilar ekanmiz, urush taassurotlariga bag'ishlangan she'r, hikoya, qissa hamda romanlarni uchratishimiz mumkin. Shunga ko'ra biz urush va bolalik munosabatlari mavzusi o'zbek bolalar adabiyotida ayrica mavqega ega ekanligi haqida tahlil yuritamiz.

Kalit so'zlar: Davr, urush, personaj, yoshlar, "Qahr va mehr" "Qush qanoti bilan" "Mening husnim", Vatan, insoniyat.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE PORTRAYAL OF WORLD WAR II EVENTS IN SHORT STORIES (Based on the works of Nosir Fozilov)

ANNOTATION

Every writer and poet initially begins by writing about situations they have personally experienced or witnessed in their early exercises. We cannot say that the majority of our writers who created in the 20th century did not touch upon the theme of war. In this article, as we analyze Uzbek children's literature, we can find poems, stories, novellas, and novels dedicated to the impressions of war. Accordingly, we will examine how the theme of war and childhood relationships holds a special place in Uzbek children's literature.

Keywords: Era, war, character, youth, "Wrath and Love," "With Bird's Wings," "My Beauty," Homeland, humanity.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ИЗОБРАЖЕНИЯ СОБЫТИЙ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ В ПОВЕСТЯХ

(На примере произведений Насира Фазилова)

АННОТАЦИЯ

Каждый писатель и поэт в своих первых пробах пера прежде всего описывает ситуации, которые он пережил лично или свидетелем которых стал. Мы не можем утверждать, что большинство наших писателей, творивших в XX веке, не обращались к теме войны. В данной

статье, анализируя узбекскую детскую литературу, мы можем встретить стихотворения, рассказы, повести и романы, посвященные впечатлениям о войне. Соответственно, мы проведем анализ того, что тема отношений войны и детства занимает особое место в узбекской детской литературе.

Ключевые слова: Эпоха, война, персонаж, молодежь, "Гнев и любовь," "Крылом птицы," "Моя красота," Родина, человечество.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Inson ulgʻayib borgani sari ortda qolgan umrini sarhisob qilish jarayonida qiynalgan vaqtdan koʻra yaxshi kunlarni eslashga harakat qiladi. Ikkinchi jahon urushi ham yetmish yillik tarixni ortda qoldirib, hozirgi avlodga uning xotiralari yetib kelmoqda. Ikkinchi jahon urushining tarixi tobora muqaddas boʻlib, tobora salobat kasb etib, u haqdagi tasavvurlarimiz yanada toʻlib, mukammallashib boryapti. Vatandoshlarimiz qoni, imoni va eʼtiqodi bilan bitilgan bu tarix faqat kattalar uchungina emas, ayni choqda, yoshlar – keyingi avlodlar uchun ham gʻoyatda ibratli tarix boʻlib qolyapti. Ikkinchi jahon urushi davrini turli darajada biladigan, uni oʻzining hayotiy tajribasidan kelib chiqib tasavvur qiladigan har xil yoshdagi yozuvchilar bu mavzuda koʻplab asarlar yozgan va yozmoqda. Ularning hammasi ham badiiyligi, oʻsha davr hayotini haqqoniy yoritish olishi jihatidan bir xil boʻlmasligi turgan gap. Bu, albatta, har bir yozuvchining voqealar va xarakterlarni tasvirlashdagi oʻziga xos uslubi, isteʼdod darajasi bilan belgilanadi. Demak asar voqealari oʻquvchiga yaqin boʻlishi va ishonarli tarzida ifodalanishi adibning koʻrgan-kechirganlariga ham bogʻliqligi yana bir bor isbotlanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili (Literature review). N.Fozilov juda koʻp mavzularda asar yozgan, ammo urush va XX asrning qatagʻon davrlari mavzusi adib asarlarining bosh mehvari hisoblanadi. Aslida, urush va bolalik munosabatlari mavzusi oʻzbek bolalar adabiyotida ayricha mavqega ega. Chunki bugungi bolalar urush haqida urush faxriylari suhbatlari-yu matbuotimiz sahifalari, nasriy va sheʼriy asarlar, tarixiy kitoblar, kinofilmlar orqali maʼlumot oladilar. Binobarin, yosh avlodni chinakam vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda bu mavzudagi asarlarning ahamiyati katta. Chunki urush yillari bolalarining oʻlmas jasorati, Vataniga sadoqati, xalqiga hurmati bugungi va kelajak avlod uchun hamisha eng yaxshi namuna boʻlib qolaveradi, ularni insoniy kamolot sari boshlayveradi.

Urush bolalari haqida gapirganda, Hakim Nazirning “Lochin qanotlari”, X.Toʻxtaboyevning “Besh bolali yigitcha” romanlarini, F.Nasriddinovning “Bogʻiston qushchalari”, S.Nurovning “Begʻubor tong” qissalari, Adham Rahmatning “Izlarini izlab” hujjatli qissasi, Sulton Joʻra, Zafar Diyor, Shukur Saʼdulla, Quddus Muhammadiy, S.Barnoyev, T.Adashboyevlarning urush va bolalik mavzusidagi sheʼrlari, S.Barnoyevning “Chiroqlar”, “Nur yogʻilgan kun” qissalari, “1947 yil hikoyalari”, “Afgʻon bolalari” turkum hikoyalari, “Dadamning qoʻllari”, “Chehralar” toʻplamidagi sheʼrlari, qolaversa, N.Fozilovning “Tosh”, “Mening husnim”, “Qoʻngʻiroq” kabi hikoyalari, “Saraton”, “Qahr va mehr”, “Qush qanoti bilan” qissalari alohida eʼtiborga molikligi koʻrinadi.

Oʻzbek bolalar adabiyotining zahmatkash tadqiqotchisi, professor P.Shermuhamedov urush mavzusidagi asarlarni besh guruhga ajratadi: birinchi guruhga urush yillari otadan ajralgan, onasiz yetim qolgan bolalar hayotini aks ettiruvchi asarlar; ikkinchi guruhga urushda qatnashgan bolalar va yoshlar qahramonligini hikoya qiluvchi asarlarni kiritgan. Uchinchi guruhni urush yillari mamlakat ichkarisida kattalar qatori mehnat qilgan bolalar hayotini aks ettiruvchi asarlar tashkil etsa, toʻrtinchi guruh doirasida kattalar jasoratini madh etuvchi lavhalar, esdaliklar, hujjatli-biografik qissalarni qayd etadi. Nihoyat, beshinchi guruh harbiy-vatanparvarlik mavzusida yozilgan asarlar sirasidan iborat.

Ushbu guruhlashga binoan N.Fozilov asarlari uchinchi guruh mavzusidagi asarlar sirasiga kirib, yozuvchining urush yillari mamlakat ichkarisida kattalar qatori mehnat qilgan bolalar hayotini aks ettiruvchi asarlaridan iboratdir.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Bizningcha, urush mavzusidagi asarlarni yozilgan vaqtiga qarab, urush yillarida va undan keyingi yillarda yaratilgan asarlar tarzida ikki guruhga ajratish yanada maqsadga muvofiqroqdir. Negaki, N.Fozilovning urush mavzusidagi barcha hikoyalari urushdan keyingi davr mahsuli. Albatta, urushdan keyingi davr ham aslida ijtimoiy-estetik

tafakkur rivojlanishida bir-biridan farqli tamoyillarga ega ichki bosqichlardan iborat. Bu hol bolalarning urushga munosabatiga oid jarayonlar bilan ham bog'liq. Chunonchi, tarixiy g'alabadan keyin – 40-yillar ikkinchi yarmi va 50-yillar o'rtalarigacha bo'lgan davrda bolalar uchun yaratilgan urush mavzusidagi asarlarda g'alabadan sarmastlik va uni amalga oshirishda Stalin shaxsini ideallashtirish yetakchilik qilgan bo'lsa, shaxsga sig'inish oqibatlari fosh etilgandan keyingi 60-80-yillardagi hikoyalarda urushning fojiali oqibatlari, insonlar qalbidagi alamlar, jarohatlar tasviri keng o'rin egallaydi. 90-yillardan boshlab esa istiqlool muhofazasi motivi ustuvor mavqe hosil qila boshladi, tinchlikni sharaflash istiqloolni qadrlash tuyg'usi bilan sintezlashib ketgan hikoyalar yozishga e'tibor kuchaydi. Chunki insoniyat yashar ekan, yaxshilik bilan yomonlik, ezgulik bilan yovuzlik o'rtasidagi kurash hech to'xtamaydi. Endilikda bu kurashning salbiy qutbi ba'zan terrorizm, ba'zan turli aqidaparastlik harakatlari ko'rinishlarida davom etib kelmoqda.

Shu mavzuda so'z ochilganda, urushning xalq xo'jaligi, madaniyatimiz rivojiga yetkazgan zarari haqida, g'olib qaytganlar-u shahidlar haqida ko'p gapiriladi. Biroq urushda eng ko'p aziyat chekkan, otasi va akasidan ajralib yetimlikka giriftor bo'lgan, bolalik gashtini surish o'rniga kattalar yumushini zimmasiga olib, och va yupunligiga qaramay, kattalar o'rnida xizmat qilishga mahkum etilgan bolalar hamisha ham xayolga kelavermaydi.

Yuqorida adabiyotshunolarimizning urush mavzusidagi asarlarni bir necha guruhga ajratib o'rganganini inobatga olib, o'zbek bolalar adabiyotida urush va bolalik mavzusiga badiiy munosabatni ifodalovchi asarlarni, shartli ravishda, quyidagi ikki guruhga ajratish mumkin:

1) bevosita urushni ko'rgan ijodkorlarning urush mavzusidagi asarlari;

2) urushni ko'rmagan, ammo uni bolalik xotirasi bilan badiiyat prizmasidan o'tkazib tasvirlash yo'lidan borgan ijodkorlarning asarlari.

Nosir Fozilov asarlari ikkinchi guruhga mansubdir. Zotan, u urushga bormagan bo'lsa-da, bolaligi o'sha mashaqqatli va dahshatli yillarda kechgan.

Tahlil va natijalar (Analysis and results). Shu jihatdan aynan urush davrining qiyinchiliklarini boshdan kechirgan, bolaligining eng shirin damlarini urush oqibati ila dalada kattalar bilan birga o'tkazgan N.Fozilovning “Qahr va mehr” hamda “Qush qanoti bilan” qissalari hamda “Mening husnim” hikoyasi alohida e'tirofga loyiqdir. Ushbu o'rinda O'zbekiston xalq yozuvchisi O.Yoqubovning “Nosir Fozilovning bolalik chog'lari urush yillariga to'g'ri kelgan. U o'z qahramonlari Haydar va G'anisherlar (“Mening husnim” hikoyasi qahramonlari nazarda tutilmoqda – M.SH.) kabi dashtda bug'doy ekib, mashoq tergan, ”eshak karvon” tuzib, davlat omborlariga bug'doy tashigan. Shuning uchun ham uning hikoya va qissalaridan o'sha davrning otashin nafasi, dasht oftobining harorati keladi, urushga ketgan otalarini sog'ingan bolachalarning mayus qarashlari ko'z oldingizdan ketmaydi, ularning iztiroblari sizni ham iztirobga soladi, sizni ham hayajonlantiradi, entiktiradi. Nosir asarlarida Turkiston o'zbeklarining o'ziga xos tili, qiyofasi, urf-odatlarini juda aniq sezilib turadi”. (“Kichkina demang bizni..” – B. 2-3)degan so'zlari xarakterlidir.

N.Fozilov mahoratining yana bir jihati bir xil manzara, bir xil tasvir, bir xil obrazlar bilan bir necha hikoya va qissalarni yarata olishida namoyon bo'ladi, Bu haqida yuqorida ham qisman fikr yuritgan edik. Kitobxon o'qishni boshlaganda bu asarni qachondir o'qiganligini aniq eslaydi, qahramonni taniydi, shu asarmi yoki boshqami deb bir necha bor kitob muqovasiga ham qaraydi. Ammo hikoya yoki qissaning oxiriga yetganda, yakunga kelib, umuman boshqa asar ekanligini tushunib yetadi.

“Mening husnim” hikoyasi, “Qush qanoti bilan” hamda “Qahr va mehr” qissalaridagi “Eshak karvon” syujetini olaylik. Voqea tasviri, obrazlar so'zi, qahramonlarning nomlanishi (ba'zilarini boshqa nom bilan atagan bo'lsa-da) ham hatto bir xil badiiy chiziqda ketadi:

“- Ko'rdingmi?

- Nimani? - dedim hayron bo'lib.

- Qishloqda nima ko'p, eshak ko'p - dedi u kulib.

- Nima bo'пти?

- Yig'ib, anavinday qilib bug'doy tashisak-chi? - dedi yo'lovchiga ishora qilib. - Zagatovka!....

Men uni maqsadini darrov fahmladim”.

Ushbu parcha “Mening husnim” hikoyasi va “Qahr va mehr” qissasidan olingan bo‘lib, hikoya va qissada hech bir so‘z o‘zgartirilmay bayon etilmoqda va bu syujet orqali adib voqealar rivojini boshlab bermoqda.

Har uchala asarda ham aynan urush davri bolalarining front orti mashaqqatlari, urush oqibatidan bolaligini unutib, kattalar qatori mehnat qilayotgan o‘spirinlar hayoti qalamga olingan. Asarlarning badiiy tasvirida obrazlar qiyofasida ham urush qiyofasi gavdalanadi. “Mening husnim” hikoyasi va “Qahr va mehr” qissasidagi Xoliq bobo, “polnomosh” (vakil) obrazi tasviri orqali davr kishilari qiyofasi aks etgan. O‘rim-yig‘im paytida rayondan qishloqqa birlashtirilgan vakil portreti quyidagicha chizgilarda tasvirlanadi: “Boshiga oq kolomenka kepka, egnida oq ko‘ylak, belini ingichka belbog‘ bilan bog‘lab olgan, popugini yoniga osiltirib qo‘yibdi. Galife shim, etik. Yaqinlashganda ko‘rdim: xuddi burnining tagiga qo‘ng‘iz yopishtirib olganday mo‘ylov” (“Kichkina demang bizni...”, 17-6.). O‘z davri urfiga aylangan “kolomenka kepka”, “galife shim, etik” tasvirlari urush davri kishilari qiyofasini haqqoniy va hayotiy aks ettiruvchi tafsil vazifasini o‘tagan. Bu esa portret tasviridagi jonlilikni ta‘minlash bilan birga yosh kitobxonni davr voqeligiga olib kirishga xizmat qiladi.

O‘zbek adabiyotshunosligida syujetni an‘anaviy, ya‘ni voqealar tizimi o‘laroq tushunish ustuvor. Jumladan, akademik I.Sultonov fikricha, syujet “asarda hikoya qilinayotgan voqea” bo‘lsa, “asar mazmuniga asos bo‘lgan kichik yoki katta voqea demakdir”, deydi prof. D.Quronov. Adabiyotshunos ta‘kidlaganidek, keltirilgan kichik bir voqea asosida yozuvchi butun bir davlat boshidagi musibatga ishora qilmoqda va asarlari qahramonlariga yo‘l ko‘rsatmoqda. Asarlarning motivi ham bir xil, front orti harakatlarida bolalarning o‘rni va ahamiyati haqida so‘z bormoqda.

“Mening husnim” hikoyasi hamda “Qahr va mehr” qissalarida “Eshak karvon”ni tashkil qilish so‘zma-so‘z bir xil syujet chizig‘ida tasvirlanayotgan voqealar ketma-ketligiga ulansa, “Qush qanoti bilan” qissasida bu voqea Hasan ko‘zoynakning qabihliklari ortida shunchaki eslanadi.

Shu o‘rinda adib ko‘rgan-kechirganlarini yozganligiga guvoh bo‘lish bilan birga, hikoyada tilga olingan qahramonlarning nomi qissada o‘zgaradi, bu holat N.Fozilov urush vaqtida birga Vatan uchun xizmat qilgan tengqurlarining barchasini o‘z asarlari orqali kitobxon bilan tanishtirib bormoqchi bo‘lganini tasdiqlaydi. Fikrimiz dalili uchun ushbu asarlar qahramonlari nomlarini yonma-yon qo‘yib, qiyoslashga harakat qilamiz:

“Mening husnim” hikoyasi qahramonlari:	“Qush qanoti bilan” qissasi qahramonlari:	“Qahr va mehr” qissasi qahramonlari:
Haydar, Roziq, A‘zam, G‘anisher, Xoliq bobo, polnomosh	Sarvar - qissa shu qahramon tilidan hikoya qilingan. 13 yoshda, A‘zam - do‘sti, amakisining o‘g‘li, birga o‘sgan, hozir kolxozda rais. Po‘lat (amaki) – Sarvarning amakisi, adabiyot muallimi, urush davrida raykom bo‘lgan. Hasan ko‘zoynak – Izzatullaning o‘g‘li, 7-8-sinf o‘quvchisi. Eshmat aka – aravakash, shahar qatnaydi, yaqinda urushdan qaytgan, bir oyog‘i yo‘q. Izzatulla - kolxoz hisobchisi (o‘ta baxil va mansabga o‘tirgandan keyin aynigan inson). Erik – Hasan (Karim)ning ammasining o‘g‘li.	Ergashvoy - qissaning asosiy qahramoni, 13 yoshda, qissa shu bola tilidan hikoya qilingan. A‘zam - Ergashning do‘sti, amakisining o‘g‘li (13-14 yoshlarda). Po‘lat - A‘zamning dadasi, Ergashning amakisi. Karim (Karim ko‘zoynak) - asarning asosiy qahramon-laridan. Eshmat aka – aravakash, shahar qatnaydi, yaqinda urushdan qaytgan, bir oyog‘i yo‘q. Izzatulla - kolxoz hisobchisi, Karimning otasi.

	Akmal aka (Doniyorov) – asarning asosiy qahramoni, qamalgan, adabiyot muallimi, filolog.	Erik - Karim (Hasan)ning ammasining o'g'li. Jalil, Abdunabi, Qalmaqon, G'anisher - Ergashning tengqurlari. Polnomosh (upolnomocheni) - rayondan chiqqan vakil. Qo'chqor muallim-chalovda boshliq.
--	--	---

N.Fozilov ijodining o'ziga xos tomonlaridan yana biri asarlarining biri ikkinchisini to'ldirishi va bir syujet orqali o'quvchiga ikki xil voqeani yoritib berishidadir.

Demak, “Qush qanoti bilan” hamda “Qahr va mehr” qissalarining ko'pchilik qahramonlari deyarli bir xil nom bilan ataladi. Lekin asar xulosasiga kelganda ikkala asar ikki xil taassurot bilan yakunlanadi:

“Qahr va mehr” qissasida asosan bolalar uchun ibrat bo'ladigan fikr va mulohazalar yoritilgan bo'lsa, “Qush qanoti bilan” qissasida keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan fikrlar ilgari suriladi. “Qush qanoti bilan” asarida Hasan (Karim ko'zoynak) qilayotgan ishlar nisbatan to'liq yoritilgan bo'lsa-da, nima uchundir uning “Eshak karvon” yoki xirmondan quvilgani to'liq yoritilmagan. “Qahr va mehr” asarida esa uning bug'doy o'g'irlaganligi uchun quvilgani aniq hikoya qilinadi va kitobxonning yosh xususiyatlari ham inobatga olinib, bu voqeani batafsil bayon etish bilan yozuvchi o'quvchida har bir holatni batafsil izohlagandek taassurot qoldiradi.

“Qush qanoti bilan” qissasi Sarvar tilidan hikoya qilinsa, “Qahr va mehr” Ergash tilidan hikoya qilinadi. “Qahr va mehr” qissasi va “Mening husnim” hikoyasida, yuqorida qayd etilganidek, “Eshak karvon” tashkil qilinishi Ergash va A'zamning g'oyasi ekanligi, aynan ular shu tashabbus bilan chiqqani batafsil yoritilgan. “Eshak karvon” epizodi, aslida, “Saraton” qissasida ham uchraydi. Bu asarda To'ra yosh bolalardan tashkil qilingan “Eshak karvon” bilan g'alla tashir edi. Demak, bu ayni bir xil holat tasviri uch asarda uchrashi yozuvchi aynan ko'rgan va bilgan voqea-hodisalarini qissalarning barchasida mahorat bilan tasvirlanganini tasdiqlashga xizmat qilsa, ikkinchidan, bir necha asarda bir xil urush davriga xos xarakterli voqealar tasviri qahramonlar ma'naviy olamini ochib berishda muhim badiiy vazifani o'taydi. Shu o'rinda adib hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirib kitobxonga yetkazmoqda.

“Qahr va mehr” qissasi yuqorida ta'kidlaganimiz “Qush qanoti bilan” qissasining sakkizinchi bobidan boshlab voqealar rivoji ketganligini aytib o'tdik. “Qush qanoti bilan” qissasi avtobiografik asar singari yozuvchining qishlog'iga kelib yigirma yillik voqealar eslashi bilan boshlanadi. Shuningdek, Akmal aka obrazi “Qahr va mehr” qissasida umuman tilga olinmaydi. “Qahr va mehr” qissasi Ergashning tilidan hozirgi zamonda, ya'ni voqealar bo'lib o'tgan vaqt bilan bayon qilinadi.

“Qush qanoti bilan” va “Qahr va mehr” qissalarida yozuvchi urushning oqibatlarini bolalar nigohida tasvirlashining guvohi bo'lamiz. Yuqorida kimningdir otasi, boshqasining akasi urushga ketganligi va kimlar qoraxat olib uyida motam marosimlari bo'layotgani haqida so'z yuritilgan. Ushbu ikki qissada ham xuddi shunday. Professor Safo Matchonning “Xuddi shu adoqsiz tuyg'ular, porloq kelajak uchun hayotini qurbon qilgan buyuk insonlar haqqi-hurmati. U – urush davri bolasi. Urushdan keyingi davr bolalari hayotini yaxshi biladi, bu haqda yaxshi yozadi” (“Bolaligini poshsholikka yo'ygan adib”. - B.12.) – degan ta'kidi fikrimiz dalilidir. Bu urushdan nafaqat bolalar, balki zamin-u zamon ham ozor chekdi; hatto quyosh mayus, “yuvvosh” tortib qoldi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytish mumkinki, “Mening husnim” hikoyasi “Qush qanoti bilan” qissasiga asos bo'lgan. “Qush qanoti bilan” qissasida kitobxonga yetkaza olinmagan voqea va personajlar esa “Qahr va mehr” qissasida yanada kengroq yoritilgan. Ularni bir-biriga bog'lab turuvchi halqa – mavzuning umumiyligi, maktab o'quvchilarining mehnati va o'smirlar hayotini tasvirlashda namoyon bo'lsa, qissadan qissaga o'tgan sari adib qalami charxlanib borganligi ham ko'zga tashlanadi.

Nosir Fozilov bolalarning ichki dunyosini yaxshi biladigan yozuvchi. Uning bolalarga atalgan asarlariga o'zi ko'rgan-bilgan voqealarni, hayotda prototipi bo'lgan qahramonlarini olib kirganligi bilan ta'sirchanlikka erishgan. Professor H.Karimovning “...har qanday prozaik asarning badiiyligi

xarakterning mukammalligi bilan belgilanadi. Chunki badiiy asar hayotda sodir bo'lgan voqelik orqaligina tarixga va bugunga baho bermaydi, balki inson qalbi tahlili vositasida hayot haqida mushohada yuritadi. Boshqacha qilib aytganda, olam va odam xususida o'z fikr doirasi, nuqtai nazari hamda hayot tendensiyasini anglash darajasida o'z fikrini bildiradi, uni kishi ongiga singdiradi, shuuriga shuur qo'shadi. Yozuvchining bu boradagi saviyasi qanchalik chuqur bo'lsa, uning qahramonlari shunchalik jozibador va faoliyati shunchalik ta'sirchan bo'ladi" degan fikrlarini Nosir Fozilov ijodiga ham to'la tatbiq etish mumkin. Nosir Fozilov hikoyalarining qahramonlari mehnatsevar, kattalar bilan yonma-yon turib turmush mashaqqatlariga dosh berayotgan, o'z ona yurtini sevuvchi, halol va to'g'riso'z bolalardir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Фозиллов Н. Болалигим – пошполигим. - Тошкент: Юлдузча, 1989. - Б. 17; 2.Фозиллов Н. Кичкина деманг бизни. – Тошкент: Ёш гвардия, 1977. –Б.15.
- 3.Фозиллов Н. Қуш қаноти билан. – Тошкент: Ёш гвардия, 1966. - 102 б.
- 4.Фозиллов Н. Робинзонлар (хикоялар). – Тошкент: Ёш гвардия, 1964. - 164 б.
- 5.Каримов Х. Жанрми ёки услуб? (лирик прозанинг услуб хусусиятлари). –Тошкент: Фан, 1991. –Б. 9
- 6.Musayeva Sh. O'zbek bolalar nasri taraqqiyotida Nosir Fozilov ijodi. Filol.fan.b.fals.dok. ...diss. – Toshkent, 2023. – 69-74 b.
- 7.Носир Фозиллов замондошлар хотирасида. – Тошкент: Машхур-пресс, 2019.-
- 8.Quronov D. Adabiyot nazariyasi asoslari. – Toshkent: "Navoiy universiteti", 2018. –Б.165.
- 9.Шермухаммедов П. Ижод дарди. – Тошкент: ФАН, 1973. –Б.5.

СЎЗ САНЪАТИ ХАЛҚАРО ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 6 СОН

МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА

ТОМ 7, НОМЕР 6

INTERNATIONAL JOURNAL OF WORD ART

VOLUME 7, ISSUE 6

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; E-mail: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000